



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyozov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтакавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

**HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHNING NAZARIY ASOSLARI VA
KONSEPSIYALARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПЦИИ РЕГИОНАЛЬНОГО
ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ**

**THEORETICAL FOUNDATIONS AND CONCEPTS OF REGIONAL ECONOMIC
DEVELOPMENT**

Bekmurodov Nurali Xolmatovich University of Business and Science
Toshkent filiali, “Iqtisodiyot” kafedrasi professori v.b.

Annotatsiya

Mazkur maqolada hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy-metodologik asoslari hamda uning zamonaviy konseptual yondashuvlari tizimli ravishda tahlil etiladi. Tadqiqotda hududiy rivojlanish nazariyalarining evolyutsion bosqichlari ochib berilib, klassik joylashuv nazariyasi asoschilari qarashlari ilmiy jihatdan umumlashtiriladi.

Maqolada hududlararo iqtisodiy tafovutlarning shakllanish omillari, ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashuvi, transport-logistika infratuzilmasi, institutsional muhit va innovatsion salohiyatning mintaqaviy rivojlanishga ta’siri kompleks yondashuv asosida yoritiladi. Shuningdek, barqaror va inklyuziv hududiy rivojlanish, klasterlashuv jarayonlari hamda raqobatbardosh hududlarni shakllantirish mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari hududiy iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirish, mintaqalararo nomutanosibliklarni qisqartirish va uzoq muddatli barqaror o’sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Hududiy iqtisodiyot, mintaqaviy rivojlanish nazariyalari, joylashuv konsepsiyasi, markaziy o‘rinlar modeli, o‘shish qutblari nazariyasi, kumulyativ sabablar, yangi iqtisodiy geografiya, hududlararo differentsiallashuv, iqtisodiy klasterlashuv, barqaror rivojlanish, institutsional omillar, hududiy raqobatbardoshlik.

В данной статье всесторонне и системно исследуются теоретико-методологические основы регионального экономического развития, а также современные концептуальные подходы к его осмыслению. В работе раскрываются эволюционные этапы становления и развития теорий регионального развития, проводится обобщение и сравнительный анализ научных взглядов представителей классической теории размещения.

Особое внимание уделяется факторам формирования межрегиональных экономических различий, закономерностям территориального размещения производительных сил, а также влиянию транспортно-логистической инфраструктуры, институциональной среды и инновационного потенциала на динамику регионального развития. Комплексно рассматриваются теоретические и прикладные аспекты устойчивого и инклюзивного регионального развития, процессы кластеризации экономики и механизмы формирования конкурентоспособных региональных систем.

Полученные результаты ориентированы на совершенствование инструментов региональной экономической политики, снижение межрегиональных диспропорций и обеспечение долгосрочного, сбалансированного и устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: Региональная экономика, теории регионального развития, теория размещения, модель центральных мест, теория полюсов роста, кумулятивная причинность, новая экономическая география, межрегиональная дифференциация, экономическая кластеризация, устойчивое развитие, институциональные факторы, региональная конкурентоспособность.

This article comprehensively and systematically examines the theoretical and methodological foundations of regional economic development, as well as modern conceptual approaches to its interpretation. The study explores the evolutionary stages in the formation and development of regional development theories and provides a synthesis and comparative analysis of the scientific views of representatives of classical location theory.

Particular attention is paid to the factors shaping interregional economic disparities, the patterns of territorial distribution of productive forces, and the influence of transport and logistics infrastructure, the institutional environment, and innovation potential on the dynamics of regional development. The paper comprehensively analyzes the theoretical and applied aspects of sustainable and inclusive regional development, the processes of economic clustering, and the mechanisms for forming competitive regional systems.

The findings are aimed at improving the instruments of regional economic policy, reducing interregional disparities, and ensuring long-term, balanced, and sustainable economic growth.

Keywords: Regional economics, regional development theories, location concept, central place model, growth pole theory, cumulative causation, new economic geography, interregional differentiation, economic clustering, sustainable development, institutional factors, regional competitiveness.

Hududiy iqtisodiy rivojlanish muammosi iqtisodiyot fanida iqtisodiy makon, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, resurslarning hududiy taqsimoti hamda institutlar samaradorligi bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan murakkab ilmiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Mazkur tushuncha faqat iqtisodiy o‘shish sur‘atlari bilan emas, balki hududlar o‘rtasidagi tarkibiy tafovutlar, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar va rivojlanish trayektoriyalarining barqarorligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli hududiy rivojlanish nazariyalari iqtisodiy fikr evolyutsiyasining turli bosqichlarida shakllangan bo‘lib, ularning har biri hududiy iqtisodiy jarayonlarning muayyan jihatlarini ilmiy asoslashga qaratilgan.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning nazariy asoslarini rivojlantirishda xorijiy olimlaridan I.Tyunen (1783-1850), A.Veber (1868-1958), A.Lesh (1906-1945), V. Kristaller (1893-1969), rus olimlaridan K.I.Arsenev (1789-1865), P.P.Semenov-Tyan-SHanskiy (1827-1914), N.P.Ogarev (1813 1877), D.I.Mendeleev (1834-1907) lar munosib hissa qo‘shishgan. Xususan, I.Tyunenning «Qishloq xo‘jalik standarti», A.Veberning «Sanoat shtandortlar», F.Perruning «O‘shish qutblari va rivojlanish markazi», A.Lyoshning va U.Ayzardning «Joylashtirish» nazariyalari shular jumlasidan [1].

Hududiy iqtisodiy rivojlanish nazariyasining ilk konseptual asoslari klassik joylashtirish nazariyalari doirasida shakllangan. I. Tyunen tomonidan ishlab chiqilgan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish modeli iqtisodiy faoliyatning fazoviy tashkil etilishini transport xarajatlari va yer rentasi mexanizmi orqali izohlab berdi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, hududiy ixtisoslashuv bozor markaziga nisbatan masofa bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy faoliyat joylashuvi ratsional tanlov natijasidir. Tyunen modeli hududiy rivojlanishni mikroiqtisodiy qarorlar yig‘indisi sifatida talqin qilishi bilan nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ilmiy ishlarida ishlab chiqarishni tashkil etishda masofa va hududning rolini ochib berishga qaratilgan iqtisodiy modelda taklif qilingan. Muallif 1826 yildagi “Alohidalashgan davlatning qishloq xo‘jaligiga va milliy iqtisodga munosabatlari” kitobida lokalizatsiya (joylashtirish) nazariyasining asoslarini taklif etgan. Y.G.Fon Tyunen tovar ishlab chiqarishning obyektiv qonuniyatlari mavjudligini aniqlagan birinchi olim hisoblanadi (uning birinchi ishi 1826-yilda paydo bo‘lgan). V.Launxard ham sanoat korxonalarini ko‘rib, chiqib, transport omili hal qiluvchi omil, deb hisoblagan. Uning fikri sanoat korxonalarini joylashadigan joy to‘g‘ri tanlanganligini xomashyo, yordamchi materiallar va tayyor mahsulotlarni keltirish uchun transport xarajatlarini minimallashtirish bilan asoslangan edi[2].

I.Tyunen izolyatsiya qilingan davlat misolida erdan foydalanish tartibi va intensivligini turli xil ekinlar yetishtirishning markaziy shahar atrofida to‘planishi, uning davlatning eng chekkasigacha cho‘zilgan bir qator konsentratsiyalashgan halqalar shaklida davom etishini asoslashga harakat qildi. Ushbu davr uchun ideallashtirilgan makonda yopiq iqtisodiyot g‘oyasini qo‘llash butunlay yangi

yondashuv edi. Bu iqtisodiy faoliyatning joylashishi nazariyasining asosini tashkil etdi. O‘z kitobida muallif “umumiy jamoaviy xarajatlar” tuzilishini berib, unga quyidagilarni kiritadi: ma’muriy, binolarni saqlash, yong‘in va do‘ldan sug‘urta qilish, ruhoniy va maktab o‘qituvchisi uchun ajratmalar, ishlab chiqarish kapitaliga (tovar-moddiy zaxiralarga) foizlar, mulkda kam ta‘minlanganlarga yordam berish, tungi qorovulni saqlash, ko‘priklarni, yo‘llarni, suv oqimlarini va chegara ariqlarini saqlash xarajatlari hamda umumiy iqtisodiyot bilan bog‘liq bo‘lgan aralash xarajatlar.

Alfred Veber 1909 yildagi “Sanoat joylashuvi sof nazariyasi” kitobida mehnat omillari, xomashyo va yoqilg‘i resurslari tannarxi, shuningdek ularni bir-biriga o‘tkazish uchun transport xarajatlari sanoat ishlab chiqarishining taqsimlanishiga ta’sir etuvchi omillar sifatida ko‘rib chiqilgan [3].

A. Veberning sanoat korxonalarini joylashtirish nazariyasi esa hududiy iqtisodiy rivojlanish tahliliga ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish konsepsiyasini olib kirdi. Veber transport xarajatlari, mehnat resurslari va aglomeratsiya samaralarini hududiy joylashuvning asosiy determinantlari sifatida ajratib ko‘rsatadi. Ushbu nazariya hududiy rivojlanishda iqtisodiy samaradorlik mezonining ustuvorligini ilmiy asoslagan bo‘lsa-da, innovatsiyalar va institutsional omillarni yetarli darajada hisobga olmaganligi bilan cheklanadi.

Valter Kristaller 1933 yildagi "Janubiy Germaniyaning markaziy joylari" asarida bozor maydonida aholi punktlarining joylashuvi to‘g‘risidagi nazariyani (“Kristal panjarasi” nazariyasi) taqdim etdi. Markaziy joylar — o‘zlariga va o‘z tumanlari aholisiga tovarlar va xizmatlar bilan yordam qiladigan iqtisodiy markazlar sifatida hisoblanishi e’tirof etildi [4].

Klassik joylashtirish yondashuvlarini rivojlantirgan holda, V. Kristallerning markaziy o‘rinlar nazariyasi hududiy bozorlar tizimi va xizmatlar iyerarxiyasini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu nazariyada hududiy rivojlanish aholi punktlarining iyerarxik joylashuvi orqali izohlanib, xizmatlar ko‘rsatish markazlarining shakllanishi hududiy iqtisodiy faollikni belgilovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi.

A. Lyoshning iqtisodiy makon nazariyasi esa hududiy rivojlanishni talab va taklif muvozanati, bozor hajmi hamda raqobat omillari bilan bog‘liq holda tahlil qilib, iqtisodiy makonning nisbatan dinamik xususiyatlarini ochib berdi. U bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyasini taklif qildi. Bunda u asosiy e’tiborni xomashyo va transport xarajatlarni kamaytirishga emas, balki foyda olishni maksimallashtirishga qaratdi [5].

Neoklassik iqtisodiy nazariya doirasida hududiy iqtisodiy rivojlanish masalalari iqtisodiy o‘shishning umumiy modellari bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etildi. R. Solou va T. Svan tomonidan ishlab chiqilgan ekzogen iqtisodiy o‘shish modeli hududlar o‘rtasida kapital va mehnat resurslarining erkin harakati sharoitida uzoq muddatda konvergensiya yuzaga kelishini nazariy jihatdan asoslab berdi. B. Barro va X. Sala-i-Martin tadqiqotlarida hududiy konvergensiya va divergensiya empirik jihatdan baholandi. Biroq real iqtisodiy amaliyot hududlar rivojlanishidagi barqaror tafovutlar mavjudligini ko‘rsatib, neoklassik yondashuvlarning hududiy notekislikni izohlashdagi cheklanganligini namoyon etdi.

Hududiy nomutanosibliklarning barqarorligini izohlashda kumulyativ rivojlanish va notekis o‘shish nazariyalari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. G. Myurdal tomonidan ilgari surilgan kumulyativ sabablar nazariyasiga ko‘ra, rivojlangan hududlarda iqtisodiy ustunliklar o‘z-o‘zini kuchaytiruvchi mexanizmga ega bo‘lib, kapital, mehnat va texnologiyalar aynan ushbu hududlarda jamlanadi. Natijada chekka hududlarda iqtisodiy faollik susayib, hududiy tafovutlar yanada chuqurlashadi. A. Hirshman tomonidan ishlab chiqilgan notekis rivojlanish konsepsiyasi esa hududiy siyosatda selektiv yondashuvni asoslab, strategik ahamiyatga ega tarmoqlar va hududlarni ustuvor rivojlantirish orqali umumiy iqtisodiy o‘shishga erishish mumkinligini ta’kidlaydi.

XX asr oxirlarida shakllangan yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi hududiy iqtisodiy rivojlanishni tushuntirishda sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. P. Krugman, M. Fujita va A. Venables tomonidan ishlab chiqilgan ushbu konsepsiyada miqyos iqtisodiyoti, aglomeratsiya samaralari, transport xarajatlari va bozor hajmi hududiy rivojlanishning asosiy determinantlari sifatida qaraladi. Yangi iqtisodiy geografiya hududlar o‘rtasida iqtisodiy faoliyatning

konsentratsiyalanishi va markaz-periferiya munosabatlarining shakllanish mexanizmlarini matematik va nazariy modellar orqali asoslab berdi.

Endogen iqtisodiy o‘shish nazariyalari hududiy iqtisodiy rivojlanishda inson kapitali, bilimlar iqtisodiyoti va innovatsion faoliyatning hal qiluvchi rolini ilmiy jihatdan asoslab berdi. P. Romer va R. Lukas tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuvga ko‘ra, ilmiy-texnik taraqqiyot tashqi omil emas, balki iqtisodiy tizimning ichki elementi hisoblanadi. Bu holat hududiy rivojlanishda ta’lim tizimi, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion infratuzilmaning strategik ahamiyatini keskin oshiradi.

Zamonaviy institutsional yondashuvlar D. North, O. Williamson va E. Ostrom ilmiy ishlanmalariga asoslanib, hududiy iqtisodiy rivojlanishni institutlar sifati, boshqaruv samaradorligi, mulk huquqlarining himoyalanganligi va ijtimoiy kapital bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Ushbu yondashuv hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy farqlarni resurslar yoki bozor mexanizmlarigina emas, balki institutsional muhitning barqarorligi va moslashuvchanligi orqali izohlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari turli ilmiy maktablar va konsepsiyalarning evolyutsion rivoji natijasida shakllangan bo‘lib, ularning har biri hududiy rivojlanish jarayonining muayyan jihatlarini ochib beradi. Ushbu nazariy yondashuvlarni kompleks tahlil qilish va integratsiyalash hududiy iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish uchun mustahkam metodologik poydevor yaratadi.

Mamlakatimiz mintaqashunos olimlari A.M.Kadirov, M.T.Askarova, A.T.Axmediyevalar o‘z tadqiqotlarida Mintaqaviy iqtisodiy siyosat – umumdavlat boshqaruvi tizimining ma’lum sohalarda (viloyatlari) (ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, madaniy, tarixiy, siyosiy) rivojlantirish maqsadida davlat manfaatlarini ko‘zlab olib borilayotgan faoliyati mavjud resurslar va ichki ehtiyojlarni maqsadli va samarali foydalanish asosida faoliyat ko‘rsatib keladi deb ta’kidlaydi[6].

Mintaqaviy siyosat davlatning hududiy tizimlarni rivojlantirishga qaratilgan strategik boshqaruv faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional rivojlanish jarayonlariga maqsadli va selektiv ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini o‘zida mujassam etadi. Mazkur siyosat hududlar rivojlanishining tabiiy-resurs salohiyati, ishlab chiqarish tuzilmasi, ijtimoiy infratuzilma darajasi hamda demografik va mehnat resurslari xususiyatlaridagi nomutanosibliklarni kompleks tahlil qilish asosida ularning rivojlanish trayektoriyalarini muvofiqlashtirishga qaratiladi. Natijada hududlararo iqtisodiy va ijtimoiy tafovutlarning chuqurlashuvi cheklanib, milliy makon doirasida muvozanatli rivojlanish shart-sharoitlari shakllantiriladi.

Bizning fikrimizcha, mintaqaviy siyosatni samarali amalga oshirish fiskal, investitsion va institutsional instrumentlar o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlashni, resurslarni hududlar kesimida iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida optimal qayta taqsimlashni hamda rivojlanish salohiyati nisbatan past bo‘lgan hududlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan differensial yondashuvni joriy etishni taqozo etadi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvining markazlashuv darajasini maqbullashtirish, subsidiarlik tamoyiliga tayanib hududiy va mahalliy boshqaruv organlarining vakolat hamda mas’uliyatini kengaytirish orqali hududlarda iqtisodiy faollik, tashabbuskorlik va institutsional javobgarlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur siyosatning konseptual-strategik yo‘nalishi hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarning ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta’sirini minimallashtirish, aholi turmush darajasi va hayot sifati ko‘rsatkichlarini hududlar kesimida muvofiqlashtirish hamda milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli, inklyuziv va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashdan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Hududiy rivojlanishning notekisligi – iqtisodiy qonuniyatdir

Klassik joylashuv nazariyalari vakillari — Johann Heinrich von Thünen va Alfred Weber, shuningdek, markaziy o‘rinlar modeli asoschisi Walter Christaller ilmiy qarashlari hududiy rivojlanishning makoni notekisligi tabiiy-iqtisodiy sharoitlar, transport xarajatlari va bozor sig‘imi bilan belgilanadi degan xulosani asoslaydi. Demak, hududlararo tafovutlar iqtisodiy tizimning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqadi.

2. Iqtisodiy o‘shishning “o‘shish nuqtalari” modeli ustuvor ahamiyatga ega

François Perroux tomonidan ilgari surilgan o‘shish qutblari konsepsiyasiga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanish yetakchi tarmoqlar va markazlar atrofida konsentratsiyalanadi hamda keyinchalik multiplikativ va diffuzion ta‘sir orqali boshqa hududlarga tarqaladi. Shu bois hududiy siyosatda strategik tayanch markazlarni aniqlash va ularni qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

3. Kumulyativ rivojlanish jarayoni hududlararo tafovutlarni kuchaytirishi mumkin

Gunnar Myrdalning kumulyativ sababiyat nazariyasiga muvofiq, rivojlangan hududlar o‘z ustunliklarini mustahkamlab boradi, sust rivojlangan hududlar esa resurslar oqimi kamayishi sababli orqada qoladi. Ushbu jarayonni muvozanatlashtirish uchun davlat tomonidan maqsadli va differensial siyosat yuritilishi zarur.

4. Aglomeratsiya va klasterlashuv hududiy raqobatbardoshlik omilidir

Yangi iqtisodiy geografiya yo‘nalishi asoschisi Paul Krugman ilmiy ishlari ishlab chiqarishning makoni konsentratsiyasi, bozor yaqinligi va miqyos samarasi iqtisodiy samaradorlikni oshirishini ko‘rsatadi. Shu bois innovatsion klasterlar va sanoat hududlarini shakllantirish hududiy rivojlanishning samarali mexanizmlaridan biridir.

5. Institutsional va infratuzilmaviy omillar ustuvor ahamiyat kasb etadi

Zamonaviy yondashuvlar hududiy rivojlanishda boshqaruv sifati, normativ-huquqiy baza, investitsion muhit, transport-logistika tizimi va inson kapitali hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Institutsional barqarorlik yuqori bo‘lgan hududlarda iqtisodiy o‘shish sur‘atlari izchil va barqaror bo‘ladi.

6. Barqaror va inklyuziv rivojlanish konsepsiyasi strategik yo‘nalishdir

Hududiy rivojlanish faqat yalpi iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘shishi bilan cheklanmasdan, ekologik muvozanat, ijtimoiy tenglik va hududlararo tafovutlarni kamaytirish tamoyillariga asoslanishi lozim. Bu uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlaydi.

7. Hududiy siyosatda moslashuvchan va differensial yondashuv zarur

Har bir hududning resurs salohiyati, demografik tarkibi va iqtisodiy ixtisoslashuvi turlicha bo‘lgani sababli yagona standart siyosat samarali bo‘la olmaydi. Maqsadli (targeted) va hudud xususiyatlariga moslashtirilgan rivojlanish strategiyasi yuqori natija beradi.

Hududiy iqtisodiy rivojlanish nazariyalari shuni ko‘rsatadiki, makoni differensiallashuv iqtisodiy tizimning tabiiy xususiyati bo‘lsada, uni boshqarish va muvozanatlashtirish samarali hududiy siyosat orqali amalga oshiriladi. Strategik o‘shish nuqtalarini shakllantirish, innovatsion klasterlashuvni rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda institutsional islohotlarni chuqurlashtirish hududiy raqobatbardoshlik va uzoq muddatli barqaror o‘shishning asosiy omillari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yakubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. T.:2019.-19 b.
2. G.M.Shadieva, T.S.Sharipov, Sh.A.Sultonov, Z.S.Artikov, L.U.Maxmudov, A.P.Xazratov, D.S.Musinov. Mintaqaviy iqtisodiyot. darslik Samarqand.: «FAN BULOG‘I» nashriyoti, 2023 - 12 bet.
3. Alfred Weber (1909) *Über den Standort der Industrie (Theory of the Location of Industries)*.
4. Valiev B.B. O‘zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investisiya salohiyatini oshirishning strategik yo‘nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertasiya. Toshkent 2020 yil.
5. Granberg A. G. Основы региональной экономики. — М.: ГУ VSHE, 2000. — S. 63-66. — 495 s. — ISBN 5- 7598-0074-4.
6. A.M.Kadirov, M.T.Askarova, A.T.Axmediyeva, Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi. Darslik –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2021, 161 bet.